

1930-Yillarda Ommaviy Qatag'onlarning Avj Olishi Va Uning O'zbekistonga Ta'siri

Mahmudov Mirsaid Mavlon o'g'li¹

Annotatsiya: Ushbu maqola Sovetlar tomonidan 1930-yillar va undan keyin amalga oshirilgan qatag'onlarning avj olishi, O'zbekiston xalqining milliy ozodlik kurashchilari, jadidlar, mulkdorlar, savdogarlar, diniy ulamolar, shoirlar, yozuvchilar, milliy rahbar kadrlarning yo'q qilinishi avj olishi haqida.

Kalit so'zlar: Inog'omovchilik, 18 lar guruhi, Quloqlashtirish, "Trud" gazetasi, "Katta qirg'in".

Birinchi jahon urushi davrida Rossiya imperatori Nikolay II ning "Imperiyadagi begona xalqlar erkak aholisini harakatdagi qo'shin hududida harbiy inshootlar va shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur boshqa har qanday ishlarga jalb etish to'g'risida»gi farmoniga (1916-yil 25-iyun) asosan Turkistonning 19 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan yigitlarining mardikorlikka olinishi ortida Andijon, Samarqand va Jizzaxda yana bir yirik ozodlik harakatlari boshlandi. Bu qo'zg'olon Rossiya imperiyasi o'ratgan mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatining eng yuqori nuqtasi bo'ldi. Ayniqsa, Jizzaxdagi harakatlar Rossiya imperiyasi hukumatini qattiq tashvishga soldi va qudratli armiya qo'zg'olonni bostirishga jalb qilindi. Qo'zg'olonchilar shafqatsiz jazoga tortildi. Jizzax aholisining butun mol-mulki, chorva mollari, uyidagi don-dunigacha olib qo'yildi, oilalar ochlikdan o'lishga mahkum bo'ldi. General-gubernator buyrug'i bilan Jizzax uyezdi aholisining butun yerlari musodara qilinib, minglab odamlar Sibirga surgun qilindi yoki qamoqqa tashlandi.

Bu kabi ommaviy qirg'inlar, jazolashlar o'zbek xalqining erk va ozodlikka bo'lgan intilishini yo'qotolmadi. Hurriyat uchun kurashish, birlashish turonliklarning shioriga aylandi. 1917-yil noyabrda tuzilib, 1918-yil fevraldayoq 72 kunlik faoliyatiga chek qo'yilgan milliy davlatchiligimiz hisoblanmish Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi Farg'ona vodiysida yirik qurolli harakatlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu harakatlar rahbarlari birin-ketin jismonan yo'q qilib yuborilsada, xalqning ozodlikka bo'lgan ishonchi so'nmadi va 1935-yilga qadar mustamlakachilarga qarshi harakatlar davom etdi. Rossiya imperiyasi butun Turkiston hududini paxta yetishtirishga ixtisoslashtirish va bu sohadan katta foyda ko'rish maqsadida aholining qo'lidan yerlarini tortib olishni boshladi. Yirik va o'rta mulkdorlar o'zlariga tegishli bo'lgan yerlaridan mahrum qilindi. Hukumat siyosatiga qarshi chiqqanlar o'limga yoki uzoq yillar qamoq jazosiga hukm qilindi.

1930-yil 30-yanvarda VKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosi "Yalpi jamoalashtirish tumanlarida quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarorning qabul qilinishi mustamlakachi tuzumga qarshi ozodlik harakatlarini yanada kuchaytirib yubordi. Bu qarorda shunday ko'rsatmalar bor edi:

- aksilinqilobiy jamoa, terrorchilik harakatlari va sovetlarga qarshi isyonlarning ishtirokchilari hibsga olinsinlar va jinoyatlari uchun sud qilinsinlar;
- jamoalashtirishga qarshi faol kurashgan yirik quloqlar va sobiq yarim pomeschiklar yalpi jamoalashtirish tumanlaridan mamlakatning shimoliy tumanlariga va olis tumanlariga badarg'a qilinsinlar;
- quloqlarning qolgan qismi jamoa xo'jaliklari yerlaridan tashqaridagi yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirilsinlar".

Mazkur qaror bo'yicha quloq sifatida hibsga olinadigan va badarg'a qilinadigan kishilar miqdori mamlakat umumiy dehqon xo'jaliklarining 3-4 foizidan oshmasligi ko'rsatilgan bo'lib, O'zbekiston SSRda bu topshiriq ortig'i bilan bajarilgan.

¹Termiz Davlat Pedagogika Instituti, Tarix fakulteti, tarix yo'nalishi, uchinchi bosqich talabasi



1930-yilda O‘zbekistonda 750 ming dehqon xo‘jaligi bo‘lgan. Shu xo‘jaliklardan 40 mingga (qariyb 6 foizi) quloq sifatida hibsga olinib, sud qilingan yoki Ukraina va Shimoliy Kavkazga, O‘rta Osiyoning yangi o‘zlashtirilayotgan cho‘l tumanlariga badarg‘a qilingan. Agar o‘ziga to‘q o‘zbek oilalari ko‘p sonli, har biri kamida 8-9 jondan iborat bo‘lganini e‘tiborga olsak, 1930-1932-yillardagi quloqlashtirish davrida respublikamizning 350-400 ming aholisi jabr ko‘rgani oydinlashadi.

O‘zbekistonda quloqlashtirish, asosan, o‘ziga to‘q, o‘rtahol dehqonlarga qarshi e‘lon qilingan urush edi, deb aytish mumkin. Dindorligi uchun, ma‘muriyat faoliyatidan norozi bo‘lganligi uchun quloq qilishar yoki shaxsiy o‘ch olishardi. Quloqlashtirishda terror usulidan ham foydalanilgani sababli odamlar yoppasiga kolxozlarga kira boshlaganlar. Aynan shu yillarda respublikada masjidlarini ommaviy buzish, dindorlarni ta‘qib qilish ham boshlangan. Xalqqa nisbatan qilingan bu zo‘ravonliklar, tabiiyki, kuchli noroziliklarni yuzaga keltirgan va aslida milliy ozodlik harakati bo‘lgan, ammo ruslar tomonidan xalqqa “bosmachilik” deya singdirilgan isyonlar jonlangan. Bu kurash 1930-yillarning oxirlariga qadar davom etib, fojiali tarzda – mustaqillik uchun kurashgan minglab vatandoshlarimizning qirg‘in qilinishi bilan yakun topdi. Mustamlakachi hukumat amalga oshirgan qatag‘onlarning eng dahshatlisi 1937-1939-yillarda amalga oshirilgan “Katta qirg‘in” edi. Bu qonli davr qirg‘inlaridan nafaqat qo‘liga qurol olishga qodir bo‘lgan yigitlar, balki millat oydinlari bo‘lmish jadidlar, mulkdorlar, boylar, diniy ulamolar va tinch aholi (keksalar, ayollar, bolalar) ham omon qolmadi.

“Trud” gazetasining 1992-yil 4-iyun sonida “Topshiriq bo‘yicha otuv yoki bolsheviklar bu ishni qanday amalga oshirishgan?» sarlavhali katta maqola chop qilingan. Asosan arxiv hujjatlaridan iborat bo‘lgan bu materialda sobiq ittifoqda 1937–1938-yillardagi stalincha qatag‘on qanday boshlangani bayon etilgan bo‘lib, unda Markaziy Qo‘mita raisi Stalinning 1937-yil 3-iyulda SSSR Ichki ishlar vaziri Yejovga, viloyatqo‘m, o‘lkaqo‘m, Milliy Kompartiyalar Markaziy Komitetlari kotiblariga yuborgan telegrammasi matni to‘liq keltirilgan:

“Shu narsa aniqlandiki, o‘z vaqtida turli viloyatlardan shimoliy va Sibir tumanlariga surgun qilingan, keyin surgun vaqti tugagach, o‘z viloyatlariga qaytgan sobiq quloqlar va jinoyatchilarning katta qismi kolxoz va sovxozlarda, transportda va sanoatning ayrim sohalarida sovetlarga qarshi turli xil harakatlar va qo‘poruvchilik ishlarining tashabbuskori bo‘lmoqdalar. VKP(b) Markaziy Qo‘mitasi barcha viloyat va o‘lka tashkilotlari kotiblariga, NKVDning viloyat, o‘lka va respublika vakillariga vataniga qaytgan barcha quloqlarni va jinoyatchilarni ro‘yxatga olishni, ularning eng dushmanlik kayfiyatida bo‘lganlarini darhol hibsga olib, ishini ma‘muriy tartibda uchlik (troyka)da ko‘rib chiqib, otib tashlashni tavsiya etadi, qolgan kam faolroq, lekin dushman unsurlar qayta ro‘yxatdan o‘tkazilib, NKVD ko‘rsatgan tumanlarga surgun qilinsinlar.

VKP(b) MK besh kunlik muddatda Markaziy Qo‘mitaga uchliklar tarkibini, shuningdek, otilishi hamda surgun qilinishi lozim bo‘lgan kishilar ro‘yxatini taqdim etishni taklif qiladi.

MK kotibi STALIN”.

Shundan keyin barcha hududlarda viloyat va o‘lka partiya qo‘mitasi birinchi kotibi, prokuror va NKVD bo‘limi boshlig‘idan iborat uchliklar tuzilgan. SSSR ichki ishlar vaziri Yejov maxfiy ravishda har bir respublika, yirik shaharlar va viloyatlarda odamlarni hibsga olib, otish va surgun qilish bo‘yicha reja (raznaryadka) belgilagan. Unga ko‘ra, O‘zbekistondan 4750 nafar kishi otilishi va surgun qilinishi kerak edi. Shu tariqa 1937–1939-yillarda O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchlik”lari tomonidan 41 ming nafardan ortiq kishi qamalgan. Ularning 37 ming nafardan ortig‘i sudlangan bo‘lsa 6 920 kishi otib tashlangan. Otilganlar soni bundan ham ko‘p bo‘lishi mumkin. Ular bularning barchasini shoshilinch va maxfiy tarzda bajarishga harakat qilishgan. Birgina Abdurauf Fitratga tegishli tergov hujjatlaridan uning otuvga hukm qilingani yashirilganini ko‘rishimiz mumkin. Abdurauf Fitratning turmush o‘rtog‘i Hikmatoy Fitratova 1956-yilda erining taqdiri haqida so‘rab, SSSR Oliy sudiga murojaat qiladi. SSSR Oliy sudining harbiy kollegiyasi o‘zining 1957-yil 1-avgustdagi majlisida Fitrat ishi yuzasidan SSSR bosh prokurori xulosasini ko‘rib chiqib ajrim chiqaradi. Ajrimda Fitratning “hech qanday jinoyat qilmagan”i “aniqlanib”, unga nisbatan chiqarilgan 1938-yil 5-oktyabrda hukm “bekor qilingan” va “ish to‘xtatilgan”.

Hujjatlarni ko‘zdan kechirganda, Abdurauf Fitrat ishi bo‘yicha SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi raisining o‘rinbosari imzosi bilan 2 nusxa tayyorlanib, biri militsiya boshqarmasiga, ikkinchisi 1-maxsus bo‘lim boshlig‘iga yuborilgan “maxfiy” xatda shunday qaydga duch kelamiz:



“Ma’lum qilamanki, 1886-yilda tug‘ilgan Abdurauf Fitrat SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan 1938-yil 15-oktyabrda sudlangan va jazoni o‘tash paytida 1944-yil 3-noyabrda yurak yetishmovchiligi kasalidan vafot etgan”. Bundan otib o‘ldirishlarning juda katta qismi aslida 1937-yilning kuzidan 1938-yilning kuzigacha to‘g‘ri kelgani, buni yashirish uchun mazkur davrda qatl qilinganlar maxsus maxfiy ko‘rsatma bilan o‘lim vaqtlari 1945-yilgacha sochib yuborilgani aniqlashadi.

Sovet hukumati Turkistonda o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirar ekan, xotin-qizlar «ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish», ularni “zamonaviylashtirish”, jamiyatda “erkaklar bilan teng faoliyat yuritishini ta’minlash” (keyinchalik ular mehnatidan keng foydalanish) masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi. Millatning eng faol ayollarini aniqlab olgan mustamlakachi hukumat 1930-yillardan boshlab, ularni jismonan yo‘q qilishga kirishdi. Ayniqsa, bu holat 1937-1938-yillarda avj oldirildi. Xorijda tahsil olib kelgan Xayriniso Majidova, Matluba Muhammedova, Maryam Sultonmurodova kabilar aksilinqilobchi va millatchi, chet el josuslari sifatida qamoqqa olindi. Ularning ham ko‘pchiligi otib o‘ldirildi, Rossiyaning uzoq hududlariga surgun qilindi. Shuningdek, yuzlab ayollar “xalq dushmani”ning onasi, qizi, turmush o‘rtog‘i, singlisi bo‘lgani uchun azob-uqubatlarga giriftor qilindi. Holbuki, ularning aksari siyosiy hayotdan bexabar, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanib yurgan ayollar bo‘lib, ayrimlarigina turmush o‘rtoqlariga maslakdosh va yordamchi edilar, xolos. Tarixiy hujjatlar tadqiq qilinarkan, “Katta qirg‘in” davrida Hadicha Aliyeva kabi yuzlab o‘zbek ayollari aybsiz “aybdorlar” deb topilgani va qiynoqlarga solingani oydinlashadi.

1937-yildan boshlab, qamoqqa olingan ayollar 1939-yilning birinchi yarmiga qadar qamoqda saqlangan. Turmush o‘rtoqlarining “aksilinqilobiy millatchilik faoliyati”ni NKVDdan yashirib kelganlikda, ularning “xalq dushmani” sifatidagi faoliyatiga sherik bo‘lganlikda ayblanganlar. Jumladan, Turkiston jadidlarining ko‘zga ko‘ringan yirik vakillaridan biri, tarjimon, noshir G‘ozi Yunus 1937-yil 6-avgust kuni hibsga olingan. 1937-yil 14-sentyabr kuni esa uning xotini Hadicha Aliyeva ustidan ham jinoiy qo‘zg‘atilgan. NKVD Davlat Xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i muovini chiqargan qarorga ko‘ra, Hadicha Aliyeva (1897-yilda tug‘ilgan) xalq dushmanining xotini va ko‘makdoshi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan va Toshkent turmasida saqlangan. Uning 14 yashar qizi Tuyg‘un G‘oziyeva xalq maorif tizimidagi bolalar uyiga jo‘natilgan. 16 yashar qizi Sharofat G‘oziyeva esa ishga joylashtirilgan. Keyinchalik uch yil muddatga mehnat posyolkasiga surgun qilingan Hadicha Aliyevaning jinoyati isbotlanmaganligi tufayli jazodan ozod etilgan. G‘ozi Yunus esa 1942-yili Vologda shahrida og‘ir xastalikdan vafot etgan.

Millatning eng bilimli qatlamining yo‘q qilib yuborilishidan qattiq qo‘rquvga, vahimaga tushgan aholi “taqdiriga tan bergan” bo‘lsa-da, 1980-yilga kelib, navbatdagi qatag‘onlar to‘lqini boshlandi. Sovet hukumati tomonidan o‘ylab topilgan “o‘zbek ishi”, “paxta ishi” tufayli yana minglab vatandoshlarimiz aybsiz aybdor bo‘ldi va shafqatsiz jazolandi. 1983-yilda Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasining OBXSS boshlig‘i A. Muzaffarov bir savdo xodimidan “pora olayotgan” paytda qo‘lga tushib, hibsga olingan. Ayni shu paytida Buxoro viloyati savdo idorasining rahbarlaridan biri Sh. Qudratov o‘zi rahbarlik qilayotgan idoradagi savdo xodimlaridan pora olishi va partiya, sovet hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar boshliqlariga “pora berishi” oshkor bo‘lib, u ham qamoqqa olingan va tergov boshlab yuborilgan. Poraxo‘rlik, tabiiyki, jamiyatning ildizlariga bolta uradigan og‘ir jinoyatlardan biri. Lekin u SSSR miqyosidagi tergov idoralari shug‘ullanadigan jinoyatlar sirasiga mutlaqo kirmas, bunday jinoyatlarni odatda respublika huquqni muhofaza qiluvchi organlarining o‘zlari ham bemalol tergov qilishlari mumkin edi. Ammo xalqni dahshatda, qo‘rquvda ushlab turishga odatlanib qolgan markazga ayni shu mash‘um voqea O‘zbekistonda yangi qatag‘onlarni amalga oshirishi uchun bahona bo‘ldi. Markaz Muzaffarov hamda Qudratovning ishini tergov qilishni SSSR prokuraturasiga topshirdi. Gdlyan va Ivanovlar esa SSSR prokuraturasi tomonidan tuzilgan tergov guruhiga boshliq qilib tayinlandi. Ularga harbiy vertolyotlar, texnika va qurollangan soldatlar ham birlashtirib qo‘yildi. Shundan so‘ng ular O‘zbekistonda misli ko‘rilmagan zo‘ravonlikdan iborat o‘ta jirkanch, mudhish faoliyatlarini boshlab yuborishdi.

Gdlyan, Ivanov hamda ular bosh bo‘lgan tergov guruhi a‘zolari olti yil mobaynida biror kimni hibsga olmoqchi bo‘larkan, odamlarni majburlab, uning ustidan soxta ko‘rgazma yozdirib olishardi. So‘ng shu hujjat asosida o‘sha aybsiz kimsa qamoqqa olinar, uni ham yana bir boshqa kishiga nisbatan yolg‘on ko‘rgazma berishga majburlashardi. O‘z muddaolariga erishish uchun gumonlanuvchilarni vahshiyona qiynoqlarga solishar, xotini, bolalarini qamash, zo‘rlash yo‘li bilan tahdid qilishardi.

1984-yilda O‘zbekiston kommunistik partiyasi markazqo‘mining o‘n oltinchi plenumida paxta yetishtirish va davlatga topshirishda kadrlar qat’iyatsizlik ko‘rsatgani, qo‘shib yozishlarga yo‘l qo‘yilgani alohida ta’kidlandi.



Vaholanki, O'zbekistonning 65 foiz aholisi o'sha paytlarda faqat paxta yetishtirish bilan shug'ullanar, millionlab odamlar – maktab o'quvchilari, talabalar markazning topshirig'i bilan dekabr, hatto yanvar oylarida ham paxta terish bilan majburiy, deyarli tekinga shug'ullanishardi. Yig'ishtirilgan hosil esa past narxlarda markazga jo'natilardi. Markazning ishtahasi ochilib, yil sayin O'zbekistonda paxta tayyorlash rejasini oshiravergan. Natijada qisqa vaqt ichida reja to'rt million tonnadan olti million tonnagacha ko'tarilgan. Paxta rejasining tabiiy sharoitlarni inobatga olmay oshirib borilishi oqibatida O'zbekistondan markazga minglab xatlar yuborilgan. Ularda paxta yetishtirish uchun suv yetishmasligi, Orol dengizining qurishi, kolxozchilar iqtisodiy ahvoli, turmush tarzining o'ta achinarli holati, paxta zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan gerbitsidlardan ko'plab paxtakorlar zaharlangani, ularning katta qismi dardga chalinib o'lib ketgani, ustiga-ustak paxta mehnati uchun to'lanadigan haq nihoyatda kamligi asoslab berilgan edi. Ammo markaz tomonidan bu talablarning birortasiga ham ijobiy javob berilmagan.

Plenumdan keyin O'zbekistonda rahbar bo'lib ishlaganlarni to'qib chiqarilgan ayblar bilan qamash ommaviy tus oldi. Respublika Ministrlar Sovetining raisi Normuhammad Xudoyberdiyev, markazqo'mning kotibi, so'ng O'zbekiston Oliy Soveti prezidiumi raisi bo'lgan Oqil Salimov, Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari Bektosh Rahimov, sog'liqni saqlash vaziri Abdulla Xudoyberganov, Navoiy viloyati partiya qo'mitasining birinchi kotibi Valeriy Yesin, O'zbekiston paxta sanoati vaziri Vahobjon Usmonov, Buxoro viloyati partiya qo'mitasining birinchi kotibi I. Jabborov, markazqo'mning ikkinchi kotibi Timofey Osetrov, markazqo'mning birinchi kotibi Inomjon Usmonxo'jayev, markazqo'm kotibi Erejeb Aytmurotov, markazqo'm ishlar boshqarmasi boshlig'i Tursun Umarov, Qoraqalpog'iston partiya qo'mitasining birinchi kotibi Qallibek Kamolov, Toshkent viloyati obkomining birinchi kotibi Mirzamahmud Musaxonov, Samarqand viloyati obkomining birinchi kotibi Nazir Rajabov, Ichki ishlar vazirining o'rinbosarlari Qahramon Toshtemirov, Petr Begelman, Yoqub Muhammadjonov va boshqalar hibsga olinganlar va yillar davomida tergov qilish uchun qamoqda saqlanganlar.

Keyinchalik qizil saltanatning oliy martabali rahbarlaridan biri, akademik A.I. Yakovlev bolshevizmning insoniyat oldidagi jinoyatlarini umumlashtirar ekan: "...misliz soxtalashtirishlar, yolg'on ayblovlar, suddan tashqarida qabul qilingan hukmlar uchun, sud va tergovsiz otib yuborishlar, ta'qib, qiynoqlar, konslagerlar, jumladan garovga olingan bolalar, tinch aholiga qarshi zaharlovchi gazlar qo'llagani uchun, lenincha-stalincha qatag'onda 20 milliondan ko'p kishi halok bo'lgani uchun bolshevizm javobgarlikdan qutila olmaydi", deb tan olgan.

Shu tarzda o'zbek xalqining milliy ozodlik kurashchilari, jadidlar, mulkdorlar, savdogarlar, diniy ulamolar, shoirlar, yozuvchilar, milliy rahbar kadrlar 1898, 1916, 1929 – 1931, 1937 – 1939, 1950, 1983 – 1985-yillarda, jami olti marta ommaviy qirg'inga uchradi. O'z Vatani ozodligi yo'lida shahid bo'ldi. Bugungi kunda Rossiya imperiyasi amalga oshirgan qatag'onlar davriy jihatdan turli bosqichlarga bo'lib o'rganilayotgani davlatimiz rahbari tomonidan ham e'tirof etildi va jadidlar tarixini o'rganayotgan tadqiqotchilarga maqsadli grantlar ajratish, ular haqida hujjatli va badiiy filmlar olish, matbuot va internet nashrlarda materiallar chop etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi hamda bir qator fikrlar ilgari surildi: "Muzeylar qildik, kitoblar chiqyapti, ko'pchiligi oqlanyapti. Lekin shu bilan unutilishi kerak emas. Mening nazarimda, qatag'on qurbonlari tug'ilib o'sgan yoki bugun avlodlari yashayotgan mahallada, o'sha yerdagi maktabda ularning nomlarini yozib qo'ysak, ham savobli, ham ibratli ish bo'lardi. Qolaversa, mana shunday bayramlarda, xotira kunlarida xonadonlarini ziyorat qilish kerak. Nega urush qatnashchilarini uyiga boramiz-u, qatag'on qurbonlarini eslamaymiz?! Ularning har birining hayoti – qahramonlik. Biz buni o'rganib, tashviqot qilib, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak".

Hukumatimiz tomonidan olimlarga, ayniqsa, tarixchilarga berilayotgan e'tibor tufayli Tarix institutida "Jadidlar.uz" elektron platformasi yaratildi. 168 ta jadidning tarjimai holi tiklandi. Ularning ilmiy merosi yaxlit elektron bazada joylashtirildi. Ammo bu tadqiqotlar hali boshlanish bo'lib, qilinishi kerak bo'lgan ishlar, yurt ozodligi yo'lida qurbon bo'lganlar oldidagi qarzimiz, vazifalarimiz bilan o'lachaganda dengizdan tomchi, desak ham bo'ladi.

Respublikaning taniqli arboblardan iborat «18 lar guruhi» (I.Xidiraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, Eshonov) ga «yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalarning manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalari ilgari surgan» degan soxta aybnooma qo'yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu bois, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a'zolari turli jazolarga giriftor etildilar.



«Inog'omovchilik» guruhi to'g'risidagapborganda, unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq to'qib chiqarilganligi ayon bo'ladi. Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'zKP(b) Markazqo'mi Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompar-tiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markaz organ-larining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida urg'u bergan. Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N.Mavlonbekov, T. Isamuhammedov, M.Aliyev, Bobonazarov singari hammaslklar Inog'omov qarashlarini qo'llab - quvvatlab chiqqandilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois, 1926, 1927— yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. Inog'omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi.

«Qosimovchilik» guruhi ham 1929-1930— yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S. Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa-jami 7 kishi 1929— yilning 2-yarmida «bosmachilik» harakatiga yon berganlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respub-likadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a'zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan bir sharti - bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti - vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo'lsa, shafqatsiz jazolash yo'li edi. Milliy kadrlar faoliyatiga nisbatan bunday noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovet-laming yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lda jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnaqi, xalqining baxtu saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati, pirovardda, mana shunday fojia bilan yakun topdi.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarning yeng shimarib qilgan «sa'y - harakatlari» natijasida 1937-1938— yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksiinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua - millatchilik aksiinqilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan «Musulmon ruhoniylarning millatchi -isyonkor tashkiloti», «Aksiinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksiinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksiinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezidenturasi», «Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezidenturasi» kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo'lmaganligini to'la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksiinqilobiy tashkilotlar qatag'on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming -minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo'lgan. XX asr boshidan 40— yillargacha 450 ming vatandosh-larimizga nisbatan «jinoiy ish» ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo'lib ketganligi faktdir.

Faqat 1937-1939- yillarda O'zbekistonda hammasi bo'lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan.

Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong'u zulmati xalqimiz dilida mangu o'chmas armon bo'lib qoldi. U faqat milliy



istiqlol tufayiliga to'la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro'shnolik ko'rish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Ziyolilarning qatag'on qilinishi. Stalincha siyosiy qatag'ondan jamiyatning sog'lom kuchlari, milliy ziyolilar eng ko'p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, totalitar rejim mutasaddilari o'zlari jaholatparast kimsalar boiganligidan, ilmu ma'rifat, ziyo ahlini qadr-lash, e'zozlash o'rniga ularni xo'rlash, tahqirlash, kerak bo'lsa, yo'q qilishni o'zlariga kasb qilib olgandilar. Shu bois, vaqti - vaqti bilan ziyoli kadrlarni qatli om chig'irig'idan o'tkazish, saflarini «yaganalab» turish ular uchun odatiy hoi bo'lib qolgandi. Masalan, butun hayoti va ijodini miflat baxt - saodati, yurt istiqboli uchun bag'ishlagan Munawar qori shu davrda avj olgan sovetlar ig'vosi va bo'htonining aybsiz qurboni bo'ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo'lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan «Milliy istiqlol» tashkilotining 87 a'zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari «Xalq dushmani», «burjua millatchisi» degan ayblar bilan qoralanib, og'ir jazolarga hukm qilindi.

O'zbek adabiyotining ustunlari bo'lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), G'ozi Yunus kabi ajoyib iste'dodlar quruq bo'htonu tuhmatlar asosida «xalq dushmanlari» sifatida jismonan yo'q qilinib, yorqin faoliyati so'ndirildi.

Masalan, ulardan biri - professor G'ozi Olim Yunusovni oladigan bo'lsak, u 50 dan ziyod asarlar muallifi edi. Arab, fors, nemis, ingliz va barcha turkiy tillarni puxta bilardi. U hatto rus, arab va nemis tillarida Samarqand universiteti, Toshkent pedagogika instituti hamda Til va adabiyot ilmiy - tadqiqot institutida umumiy tilshunoslik va t;l bilimiga kirish kabi maxsus kurslardan ma'ruzalara'qirdi. Biroq bunday iste'dodlar qatag'on jallodlari uchun sariq chaqalik qadr -qimmatga ega bo'lmagan. Mustabid tuzum farmonbardorlari, ayniqsa, bunda o'zbek xalqining milliy ongi, tafakkurini yoritish, uning o'zligini tanitishga fidoyilik qilgan, istiqloli darg'alari bo'lgan jadidizm namoyandalarini yo'q qilishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Bunga erishdilar ham.

O'zbekiston hukumatining tashabbusi va sa'y-harakati bilan 20— yillarda xorijga o'qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo'lib yetishgan kishilar atayin qatliom qurbonlari bo'ldilar. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta'lim olgan bo'lsalar ularga o'sha mamla-katlarning josuslari degan ayb qo'yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo'lsa, shuning o'zi yetarli dalil edi. Axir ular chet el oliy o'quv yurtlarida o'qigan bo'lsalar ularda shunday kitoblar bo'lishi tabiiy edi. Masalaning bunday mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini qiziqtirmagan. Xorijda ta'lim olib, professorlikunvonigasazovor bo'lgan Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Saida Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o'sha davrlarda millat faxri bo'lganlar. Ularga ham "xalq dushmani", "chet el josusi" qabilidagi tavqi la'nat tamg'asi bosilib qatli om etildilar.

Stalincha totalitar-mustabid tuzum bedodligi va zulmning haddan ziyod kuchayib borishi davomida nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzi, qismati zavol topdi, balki shu bilan birga millionlab yurt fuqarolarining oddiy insoniy qadr-qimmati, or - nomusi toptaldi, tahqirlandi. G'addor tuzum zulmkorlari o'z g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini avj oldirib, bunda har bir inson-ning yurish - turishi, kundalik mashg'uloti, muomalasidan tortib to uning qanday tafakkur yuritishigacha bo'lgan hamma jarayonlarni ham o'z nazoratiga olishga intilganlar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasini jiloviash, uni muayyan chegara doirasida ushlab turish va shu yo'l bilan badkirdor tuzum sha'niga dog4 tushirmaslik, uning soxta obro' - nufuzini asrash, avaylash edi.

Sovetlar o'z siyosatidan sal og'ish, unga zid keluvchi hollarga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lardi. Buning oqibatida kishilar dunyoqarashi, e'tiqodini o'z izmiga bo'ysundirish, uni kommunistik axloq, ilmiy va ateistik tamoyillar ruhida shakllantirish uchun keskin kurash olib borgan sovet mafkurasining respublika mehnatkashlarining ma'naviy hayotiga etkazgan zarari behisob bo'ldi. Shu yo'l bilan xalq ma'naviy — ruhiy hayotiga asrlar osha muhim hissa qo'shib kelgan butun boshliq ruhoniylartabaqasi yo'q qilindi. Din peshvolari qattiq ta'qibga olindi.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga «xalq dushmani» tamg'asini bosish tuzum zolimlari uchun huddi «xamirdan qil sug'ur-ganday» gap bo'lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki,



respub-likadagi ko'p xonadonlarda vaqti — vaqti bilan o'tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmuni so'rab, surishtirilmasdan o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la'nat tamg'asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilavergan.

Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u o'ziga sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritmog'i kcrak edi. Shu maqsadda, Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbary Iavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga «ko'z-quloq» bo'lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo'lida sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetdatutmadi.

Xulosa

Shu bois, Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namo-yandalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo'lganda- o'z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko'zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko'payib borgan. Ammo Stalin yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimas sabab va bahonalar bilan qiynoq-qistovga olish, vazifalaridan chetlatish odatiy tusga kirib bordi.

Rahbar kadrlar, ayniqsa, o'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan miliat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyushtirgan qatag'onga duchor bo'ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilari tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan, atayin to'qib chiqarilgan «18 lar guruhi», «Inog'omovchilar», «Qosimovchilar» guruhlarini misolida ko'rish mumkin. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyoviy dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi holos.

Adabiyotlar

1. USMONOV, Q., & Sodiqov, M. (2008). O 'ZBEKISTON TARIXI. Iqtisod-moliya. Toshkent-2006 y.(Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burhonov."History of Uzbekistan". Economics and Finance. Tashkent-2006).
2. Sahobidinnova, M. (2020). QATAG'ON QURBONLARI TAQDIRI (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA). Academic research in educational sciences, (3).
3. Doniyev, S. I. O. G. L. (2020). O 'zbekistonda «paxta ishi»,«o'zbek ishi» kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi. Science and Education, 1(7).
4. Юлдашева, Н. Н. (2021). СОБЩ СОВЕТ ИТТИФОКИНИНГ КАТАГОНЛИК СИЁСАТИНИ ЮРИТИШИДА "ГУЛАГ" НИНГ УРНИ. Scientific progress, 2(4), 507-512.
5. Хошимов, С. (2021). XX асрнинг 20-30 йилларида миллий ташкилотлар таркибида катагон кдлинган андижонликлар. Общество и инновации, 2(2), 26-33.

